

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUDYALAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHLTLARI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

Jasur Xojimurodov

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi qoshidagi
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sudyalar mustaqilligi kafolatlari sud tizimining naqadar muhim qismi ekanligini sudyalar mustaqilligiga xizmat qiluvchi sudyalar maqomiga doir huquqiy normalarni belgilashda ularning har tomonlama mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillarning hisobga olinganligi sud tizimi faoliyatidagi o'ziga xos jihatlardan biri ekanligi tadqiq etiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Sud tizimida sudyalar mustaqilligini ta'minlash hamda mustahkamlashga doir muhim huquqiy islohotlar amalga oshirilmogda, mazkur maqolada aslida dunyoda qanday standartlar amal qilishi va bu standartlarga sohadagi olib borilayotgan islohotlarni moslashtirish bilab bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek olib borilgan o'rganishlar natijasida maqola so'nggida muayyan xulosalar bo'yicha fikrlar va mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sudyalar mustaqilligi, sudyalar maqomi, sud, sud islohotlari, sudyalar mustaqilligi kafolatlari, sudyalar xolisligi, sudyalar daxlsizligi.

Аннотация

В данной статье исследуется, насколько гарантии независимости судей являются важной частью судебной системы, что учет факторов, влияющих на их всестороннюю независимость, при установлении правовых норм о статусе судей, служащих независимости судей, является одним из специфических аспектов деятельности судебной системы. В настоящее время в судебной системе Республики Узбекистан проводятся важные правовые реформы, направленные на обеспечение и укрепление независимости судей. Также в результате проведенных исследований в заключении статьи приводятся мнения и суждения по конкретным выводам.

Ключевые слова: независимость судей, статус судей, суд, судебная реформа, гарантии независимости судей, беспристрастность судей, неприкосновенность судей.

Abstract

This article explores how guarantees of independence of judges are an important part of the judicial system, that taking into account factors affecting their full independence, when establishing legal norms on the status of judges, serving the independence of judges, is one of the specific aspects of the judicial system. Important legal reforms aimed at ensuring and strengthening the independence of judges are currently underway in the judicial system of the Republic of Uzbekistan. Also, as a result of the research conducted, the article concludes with opinions and judgments on specific findings.

Keywords: independence of judges, status of judges, court, judicial reform, guarantees of independence of judges, impartiality of judges, inviolability of judges.

Zamonaviy konstitutsiyaviy davlatlarda sud hokimiyati mustaqilligi hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslanib, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari hokimiyatning uchta alohida tarmog'ini o'zida namoyon qiladi. Hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan o'zaro tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimini hosil qiladi.

Mustaqillik prinsipi - sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qila yotgan sudyalarda esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi.

Faqat mustaqil sud hokimiyatigina xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Mazkur vazifa samarali va ishonchli hal etilishi uchun keng jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va xolis amalga oshira olishiga to'la ishonch hosil qilishi kerak. Qachonki, ishonch yo'qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalarda bu muhim vazifani hal qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi.¹

Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balkim hokimiyatning suiste'mol qilinishidan insonlari himoya qilishga xizmat qiladi. Shuning uchun, sudyalarda sudga kelib tushgan ishlarni ko'rib chiqishda, o'zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib o'z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning xizmat vazifasi va burchi faqat ko'rilayotgan ishga nisbatan qonunni qo'llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalarda har bir tegishli holatda inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro normalarni qo'llash uchun javob beradi.

Mustaqillik va xolislik tushunchalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ayrim xalqaro nazorat organlari ularni birgalikda ko'rib chiqishadi. Ushbu tushunchalarning har biri o'zining aniq ma'nosiga va maxsus talablariga ega. Sud Mustaqilligi tushunchasi sud hokimiyati mustaqilligini ifodalovchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi. Bunda alohida institutsional mustaqillikdan tashqari sudyalarning individual mustaqilligi ham nazarda tutilishi belgilanadi.

Sud hokimiyati mustaqilligi inson huquqlari bo'yicha, xalqaro huquq bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat bilan xolis shartlar va kafolatlar asosida "xohish-iroda", balki maqom" yoki "boshqalar bilan munosabatni" bildiradi. Sud hokimiyati mustaqilligi maqomi yoki munosabati Individual va institutsional munosabatlarni nazarda tutadi. Sudyaning individual mustaqilligi kafolatlangan vakolat muddatida ifodalansa, sudning institutsional mustaqilligi ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar bilan institutsional va ma'muriy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga ko'ra xolislik tushunchasi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt 14-moddasi 1-bandiga muvofiq sudyalarda ishlarni ko'rishda noxolis va bir taraf manfaatlariga ko'zlab ishlamasliklari lozim. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining maxsus e'tirofiga binoan xolislik tushunchasi subyektivlik va bevosita xolislik elementlaridan tarkib topgan bo'lishi lozim.²

¹ Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. / Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.

² Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985 yil 26 avgustdan 6 sentyabrgacha Milanda bo'lib o'tgan yettinchi kongressida qabul

Sud nafaqat xolis bo'lishi, balkim sudning hech bir a'zosi qandaydir shaxsiy adovatli yoki noxolis bo'lishi hamda xolislik nuqtai nazaridan ham xolis bo'lishi lozim. Institutsional mustaqillik bu sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlar - ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishini anglatadi.³

"Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 1-prinsipiga asosan "Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat konstitutsiyasi yoki qonunlarida mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart", deb belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shart"ligi qayd qilingan. Boshqa hokimiyat tarmoqlaridan sud organlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida bu mustaqillikni Konstitutsiyada agar u bo'lmasa, boshqa huquqiy hujjatda aks ettirilishi ham mumkin.⁴

Sudyalar oliy kengashi raisi avvalgidek Senati a'zolari orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan tayinlanmay, balki boshqa bir qator mustaqil konstitutsiyaviy organlar rahbarlari kabi Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan tayinlanishi yuqori palataning mutlaq vakolatlariga kiritildi. Mazkur qoida asosiy qonunimizning 80-moddasi 4-bandida o'zi ifodasini topdi. Bundan tashqari Sudyalar oliy kengashi raisi Qonunchilik palatasi va Senat majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida ishtirok etishi konstitutsiyaviy jihatdan mumkin bo'lgan shaxslar qatoriga kiritildi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki shu vaqtgacha bunday shaxslar qatoriga Konstitutsiyamizning 81-moddasida faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik Sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi kiritilgan edi. Bularning barchasi Sudyalar oliy kengashi raisi lavozimi yuksak obro' va nufuzga egaligidan dalolat qilib, uning mustaqilligini, daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tartibini yanada takomillashtirish zaruriyati, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi aniq huquqiy maqomga ega emasligi, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshirishi va cheklangan vakolatlarga egaligi kabilar Sudyalar oliy kengashini tashkil etishni taqozo qildi.

Xo'sh mazkur organ avvalgisidan nimalari bilan farq qiladi? Aytish joizki, avvalgi organ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida faoliyat yuritardi edi va o'z nomiga ko'ra sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish vazifasinigina bajarardi. Uning nizomi Prezident farmoyishi bilan tasdiqlangan edi. Avvalgi Komissiya faoliyatining huquqiy asoslari sifatida Konstitutsiya va qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezidentning farmon, qaror va farmoyishlari ko'rsatilgan bo'lsa yangi Kengash va uning a'zolari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va

qilingan va BMT Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi 40/32-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan. Huquqni muhofaza qilish organlariga oid hujjatlar: to'plam. - Toshkent: "Adolat", 2004. – B.111.

³ Афанасьев С. Ф. Право на справедливое судебное разбирательство и его реализация в российском гражданском судопроизводстве. -М., 2009. - С. 28-30.

⁴ Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. / Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.

qonunlari talablariga rioya etishi hamda ularni bajarishi shartligi, Kengash o'z faoliyatini faqat qonunga bo'ysungan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, shuningdek mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

Yangi tashkil etilgan mazkur organ avvalambor konstitutsiyaviy maqomga ega, mustaqil, hech qaysi davlat organi tarkibida yoki huzurida emas hamda vazifa va vakolatlari, hatto nomi ham avvalgi Komissiyadan farq qiladi. Komissiya deganda adabiyotlarda odatda mustaqil organ bo'lmay, ko'maklashuvchi ahamiyat kasb etib, u yoki bu organ, muassasa huzurida, tarkibida faoliyat yuritadigan, yaxlit tugallangan vazifalardan ko'ra muayyan, tor doiradagi vazifalarnigina bajarish uchun tashkil etiladigan, faoliyat yuritishi doimiy bo'lmay qoida tariqasida davriylik, jamoatchilik asosida yo'lga qo'yilgan, ko'pincha tekshiruv, o'rganish funksiyalari bilan cheklanadigan tuzilmalar tushuniladi. Ana shunday maxsus huquqiy institutlar faoliyatini odatda o'zi rejalashtirmay uni tashkil etgan tuzilmalarning maxsus vazifalari va topshiriqlarini bajarishga ixtisoslashadi.

Kengash esa siyosiy-huquqiy adabiyotlarda o'z nomidan kelib chiqib, o'zida demokratizm va kollegiallik, bamaslahat ish tutish, vakillikka asoslanishi va a'zolarining to'la huquqligigi va fikrlarni erkin bildirishi, odatda mustaqil bo'lishi hamda o'zi ko'rib chiqayotgan masalada qoida tariqasida hal qiluvchi qaror chiqarishi kabilar bilan urg'ulanadi.

Xulosa o'rnida muayyan mulohazalar bildirib o'tilishi maqola bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar masalalariga yana bir bor oydinlik kiritishi shubhasizdir. Sudyalar mustaqilligini ta'minlash choralari yanada kuchaytirish O'zbekistonda sud tizimiga bo'lgan ishonchi oshirishga xizmat qiladi. Sudyalar mustaqilligining kafolatlari qamrovi kengaytirilishi va mustahkamlanishi sudyalar faoliyati samaradorligini sud va sudyalar xolisligi darajasini, ishni ko'rishning sifatini hamda chiqarilayotgan qarorning adolatli bo'lishiga zamin yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sudyalar maqomining va ularning huquqlarining konsitustiyaviy islohotlar tufayli yanada mustahkamlanishi esa sohaga davlat e'tiborining kuchliligini va xalqning ushbu masalalarga befarq emasligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. / Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.
2. BMTning Sudyalar va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayanning O'zbekistonga rasmiy tashrif natijalari bo'yicha dastlabki mulohazalar.// <http://www.un.uz/uzb/news/display/348>
3. Нешатаева Т. Н. Решения Европейского суда по правам человека: новеллы и влияние на законодательство и правоприменительную практику : монография. - М. : Норма : ИНРФА-М, 2013. - С. 88.
4. Афанасьев С. Ф. Право на справедливое судебное разбирательство и его реализация в российском гражданском судопроизводстве. -М., 2009. - С. 28-30.
5. Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985 yil 26 avgustdan 6 sentyabrgacha Milanda bo'lib o'tgan yettinchi kongressida qabul qilingan va BMT Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi 40/32-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan. Huquqni muhofaza qilish organlariga oid hujjatlar: to'plam. - Toshkent: "Adolat", 2004. - B.111.